




YURIDIK FAKULTETLARIGA QABUL IMTIHONI QANDAY BO'LISHI LOZIM



Olimnazarov Xayotbek, Xalilov Umidullo, Xushboqov Umidbek
Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabalari

Annotatsiya: Yuridik fakultetlarga qabul imtihonlari yuridik sohaning talablariga mos keladigan bilim va ko'nikmalarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon mamlakatning huquqiy tizimi va o'quv yondashuvlariga bog'liq holda turlicha shakllantirilishi mumkin. O'zbekiston va xorijiy davlatlarning yuridik fakultetlarga qabul qilish tajribalarini qiyoslash qabul imtihonlarini yanada takomillashtirish uchun yaxshi manba bo'lishi mumkin. Adliya va huquq sohasida ishlash nafaqat adolatparvarlik, balki bardosh, tirishqoqlik, va kuchli zehn talab qiladi.

Kalit so'zlar: Qabul jarayonlari, LSAT, Bilim va malakalarni baholash agentligi.

Yuridik fakultetlarga qabul imtihonlari yuridik sohaning talablariga mos keladigan bilim va ko'nikmalarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon mamlakatning huquqiy tizimi va o'quv yondashuvlariga bog'liq holda turlicha shakllantirilishi mumkin. O'zbekiston va xorijiy davlatlarning yuridik fakultetlarga qabul qilish tajribalarini qiyoslash qabul imtihonlarini yanada takomillashtirish uchun yaxshi manba bo'lishi mumkin. Adliya va huquq sohasida ishlash nafaqat adolatparvarlik, balki bardosh, tirishqoqlik, va kuchli zehn talab qiladi. Amerikaliklar tili bilan aytganda huquqshunoslikka o'qish uchun kishi ikki sifatga ega bo'lishi kerak: biri tanqidiy-tahliliy fikrlay olish, ikkinchisi esa cho'ntakni iloji boricha baquvvat qilish. O'zbekistonda yuridik fakultetlarga qabul qilish jarayoni davlat test markazlari tomonidan tashkil etiladigan test sinovlari orqali amalga oshiriladi. Abituriyentlar umumiy bilimlarni baholaydigan test savollariga javob berishadi. Bu tizim umumiy bilimlarga tayanadi, ammo yuridik sohada muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan huquqiy bilim yoki analitik fikrlash darajasini o'lchashda cheklovlarga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, huquqiy mantiqiy fikrlash, huquqiy etika va huquqiy yozuv mahorati kabi maxsus bilimlarni baholovchi alohida imtihonlar mavjud emas. Kirish imtihonlari huquqshunoslikka intiluvchi talabalar uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi, ularning huquqiy bilim olishga tayyorligini baholaydi. O'zbekistonda yuridik fakultetlarga kirish imtihonlari asosan yozma testdan iborat bo'lib, odatda har yili o'tkaziladi. Imtihon odatda bir necha soat davom etadi va har qanday huquqshunos talaba uchun muhim bo'lgan bir qator fanlarni o'z ichiga oladi. Sinovdan o'tgan asosiy mavzularga quyidagilar kiradi:

Konstitutsiyaviy huquq: Konstitutsiya, asosiy huquqlar va hukumat tuzilishi haqida tushuncha.

Jinoyat huquqi: jinoiy huquqbuzarliklar, himoya va huquqiy tartib-qoidalarni bilish.

Fuqarolik huquqi: xususiy huquqni tartibga soluvchi tamoyillar, shu jumladan shartnomalar va huquqbuzarliklar.

Yuridik yozish: nomzodlarning huquqiy dalillarni aniq va ishonchli tarzda ifodalash qobiliyatini baholash.

Ushbu fanlar huquqiy tadqiqotlarda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim bo'lgan huquqning asosiy jihatlarini har tomonlama tushunishga qaratilgan.

O'zbekistondagi va chet eldagi yuridik universitetlarni taqqoslaganda shunaqa tafovutlarni ko'rish mumkin. Ikki mamlakatdagi o'qituvchilarning orasida yer bilan osmonchalik farq bor. O'zbekistonda ko'p professorlarni bilish mumkin. Ham sudya, yurist va yirik kompaniya mutaxassisi bo'lib, ham dars berayotganlar kam. AQSHning Jorjtaun universitetidagi professorlar esa faoliyatini har ikki tomonda birday olib boradi. Universitetda talaba va o'qituvchi o'rtasida to'siq yo'q. Do'stona munosabatda bo'lishadi. **Student savol bermasa, professor xafa bo'ladi.** Chunki bu yerdagi professorlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta tajribaga ega. Professorlarning barchasi hozirda sudya, advokat yoki yirik kompaniyalarning sheriklari. AQShda yuristlikni o'qimoqchi bo'lganlar avvalo maxsus yuridik imtihon topshiradi - LSAT, ya'ni Law School Admission Test. Test abituriyentning mantiqiy, tanqidiy va analitik fikrlashini, ingliz tilida qanchalik ravon yozishini va umumiy ilmiy salohiyatini tekshiradi. LSAT imtihoniga bir yarim yil tayyorgarlik ko'rish. Chet ellik bo'lganlar uchun qo'shimcha uch oylik kurslar olishga majbur bo'lishadi. Chunki test bo'lajak yurist uchun mantiqiy o'ylash qobiliyatini tekshiradi. Amerikaliklarning logikasi osiyoliklar yoki o'zbekistonliklarnikidan tubdan farq qiladi. Shu bois AQShda o'qimoqchi bo'lganlarga chuqur izlanish va Amerikada bilim olgan, tajriba orttirgan kishilar bilan maslahatlashish tavsiya qilinadi. Imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan keyin talaba personal statement, ya'ni tarjimai holi, ish tajribasi, kelgusi rejalari haqida bayon yozib, universitet ma'muriyatiga jo'natadi. Biryola o'ntasiga yuborishi mumkin. AQShdagi qonun universitetlari nufuziga qarab, birinchi, ikkinchi va hokazo toifalarga bo'linadi. Birinchi toifadagilar – bu Garvard (Harvard University), Yel (Yale University), Stenford (Stanford University) kabi universitetlar. LSAT testidan olingan ball qancha yuqori bo'lsa, obro'li universitetga kirish ehtimoli ham ortadi. Shu jihatdan TDYUda 2023/2024-o'quv yili uchun to'lov-kontrakt miqdori O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining kunduzgi ta'lim shakli uchun 18 522 000 (o'n sakkiz million besh yuz yigirma ikki ming) so'mni tashkil etmoqda. Shuningdek, TDYUda 2023/2024-o'quv yili uchun to'lov-kontrakt miqdori O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga magistratura mutaxassisliklarining kunduzgi ta'lim shakli uchun 19 698 000 (o'n to'qqiz million olti yuz to'qson sakkiz ming) so'm etib belgilandi. Endi AQShda huquqshunoslikka o'qishning qanchaga tushishiga o'tsak: yiliga o'rtacha 30-40 ming dollar. O'qish muddati, qaysi universitetda ekaningizga qarab, ikki yoki uch yil. Lekin, advokatlik diplomini olgan kishi keyingi o'ta muhim hujjat - litsenziyani qo'lga kiritisa va o'rnini topsa maosh o'qishga ketgan pulni bemalol qoplaydi. Turli idora va tashkilotlarda har xil. AQShda advokat yiliga 70 mingdan 145 ming dollargacha haq oladi. Tajribasiga qarab, undan ham oshishi mumkin. O'zbekistonda oylik maoshga keladigan bo'lsak Yuristlar to'lanadigan maosh 500 dollardan 1,500 dollargacha haq oladi.

“Advokatura to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalarining qarorlari asosida beriladi. Ixtisoslik faqat fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy va jinoyat ishlarini yuritishda advokatlar tomonidan malakali yuridik yordam ko'rsatishda talab qilinadi.

Amerikada yuristlar ko'p. O'zini qonunlar mamlakati deb atovchi Qo'shma Shtatlar, shubhasiz, yuristlar mamlakati. Lekin chet elliklar uchun Amerikada tug'ilib-o'sgan, mahalliy sharoitni yaxshi bilgan advokatlar bilan raqobat qilish oson bo'lmasligi tabiiy hol.

Chet eldagi o'zbekistonlik yuristlarning amerikalik yuristlardan ustunligi shundaki, ular xorij tillarini biladi. Xalqaro, yirik kompaniyalarga kirib, bemalol ishlab ketadi. Amerikalik advokatlar esa ko'pincha ingliz tilidan boshqa tilni bilmaydi. Xalqaro tajribasi ham yo'q. Xorijlik advokatlar o'z davlatida ham ish tajribasiga ega bo'lishadi. Nufuzli universitetni bitirsangiz, bilimingiz yaxshi bo'lsa,

albatta o'ringizni topib ketasiz. Bundan tashqari, amerikalik talabalar, masalan, huquqni shu yerda o'rganib, faqat shu yerda tajriba orttiradi. Xalqaro tajribasi yo'q. AQShda ko'plab xalqaro tashkilotlar bor. Ular xorij davlatlaridagi sharoitni, siyosiy, ijtimoiy ahvol, urf-odat, dunyoqarashni yaxshi bilgan advokatga muhtoj. Shu bois chet ellik mutaxassislar uchun ish imkoniyatlari a'lo darajada, deb hisoblashadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari: Huquq maktabiga kirish testi LSAT (The Law School Admission Test) standartlashtirilgan test bo'lib, u yuridik maktabga kirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida: Yuridik universitetlariga kirish testi BMBA (Bilim va malakalarni baholash agentligi) standartlashtirilgan test bo'lib, u yuridik maktabga kirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

LSAT, birinchi navbatda, aniq huquqiy bilimlarga emas, balki mantiqiy fikrlash, analitik fikrlash va o'qishni tushunishga qaratilgan ko'p tanlovli imtihondir.

BMBA birinchi navbatda, mantiqiy fikrlash, analitik fikrlash emas, balki aniq huquqiy bilimlarga qaratilgan Qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan test savollari tuzilgan tanlovli imtihondir.

LSAT odatda taxminan 3,5 soat davom etadi va yiliga bir necha marta o'tkaziladi, agar kerak bo'lsa, talabalarga testni qayta topshirishga imkon beradi.

BMBA odatda taxminan 3 soat davom etadi va yiliga bir marta o'tkaziladi. O'sha yilni hisobidan talabalarga testni qayta topshirishga imkon berilmaydi.

LSAT 120 dan 180 gacha bo'lgan shkala bo'yicha baholanadi, yuqori ball nomzodning eng yaxshi huquqshunoslik maktablariga kirish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.

Birlashgan Qirollik: Buyuk Britaniyadagi huquq fakultetlariga qabul odatda A-darajali malaka yoki ekvivalentiga asoslanadi.

BMBA 94.5 dan 189 gacha bo'lgan shkala bo'yicha baholanadi, yuqori ball nomzodning eng yaxshi huquqshunoslik universitetiga kirish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi.

Misol uchun, Germaniya va O'zbekiston ta'lim tizimlari o'rtasida bir qancha farqlar mavjud bo'lib, bu farqlar ikki mamlakatning tarixiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlaridan kelib chiqadi. Germaniya ta'lim tizimi dunyoda eng rivojlangan tizimlardan biri sifatida tanilgan bo'lsa, O'zbekiston ta'lim tizimi ham so'nggi yillarda o'zgarishlar va yangilanishlarni o'tkazmoqda. Germaniya va O'zbekistonda boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi – bolalarga asosiy bilimlarni berish, ularni jamiyatda muvaffaqiyatli yashashga tayyorlashdir. Germaniyada boshlang'ich ta'lim 6 yoshdan boshlanadi va 4 yil davom etadi. Bu davrda bolalar o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'rganadilar. O'zbekistonning boshlang'ich ta'lim tizimi ham 6 yoshdan boshlanadi, lekin bu yerda boshlang'ich ta'limning davomiyligi o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. O'zbekistonning ayrim hududlarida o'quvchilarning boshlang'ich ta'lim olish muddati 4 yil, ayrim joylarda esa 5 yil bo'lishi mumkin. Germaniya tizimida ta'lim davlat tomonidan tartibga solingan bo'lsa, O'zbekistonda ham davlat ta'lim tizimining asosiy mezonlarini belgilab beradi, ammo bu jarayon ba'zan joylarda turlicha amalga oshiriladi. Germaniyada o'rta ta'lim tizimi yuqori darajadagi farqlarga ega. Bu yerda o'rta ta'lim ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi: akademik va kasbiy. **Gymnasium** – akademik yo'nalishdagi o'quv yurtlari bo'lib, ular o'quvchilarni universitetga tayyorlaydi. **Realschule** va **Hauptschule** esa kasbiy ta'lim yo'nalishlariga qaratilgan o'quv yurtlaridir. Bu tizimning o'ziga xosligi shundaki, o'quvchilarga ularning qiziqishlari va qobiliyatlariga ko'ra turli xil yo'nalishlar taklif etiladi. Germaniyada o'quvchilar "Abitur" imtihonini topshirishlari kerak, bu universitetga kirish uchun zarur bo'lgan hujjatdir.

O'zbekistonda o'rta ta'lim tizimi, asosan, umumta'lim maktablarida amalga oshiriladi. O'quvchilar barcha fanlarni o'rganib, 9-sinfdan keyin kasbiy ta'lim olish yoki umumiy o'rta ta'limni davom ettirish imkoniyatiga ega. O'zbekistonda 11-sinf yakunida **Talim-tadqiqot va sertifikatlash** imtihonlari mavjud, lekin bu imtihonlar Germaniyadagi "Abiturient"ga nisbatan kamroq ixtisoslashgan. Germaniyaning yuqori ta'lim tizimi dunyodagi eng kuchli tizimlardan biri hisoblanadi. Germaniyada universitetlar va oliy o'quv yurtlari davlat tomonidan moliyalashtiriladi, va ko'pchilik universitetlar

talabalarga to'lovsiz ta'lim taklif etadi. Biroq, yashash xarajatlari, kitoblar va boshqa ta'lim materiallari uchun to'lovlar talab qilinadi. Germaniyada ta'lim ko'proq ilmiy va nazariy jihatlariga e'tibor qaratiladi, shu bilan birga talabalarga zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bilan tanishish imkoniyati beriladi.

O'zbekistonda esa oliy ta'lim tizimi rivojlanishda davom etmoqda. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari davlat va xususiy sektorda mavjud. O'zbekistonda oliy ta'lim olishning o'ziga xos jihati – universitetlarga kirish uchun ko'pincha o'zbek tilida imtihonlar va testlar topshiriladi, lekin ba'zi mutaxassisliklar ingliz tilida o'qitiladi. O'zbekistonning oliy ta'lim tizimi yangi texnologiyalar va ilg'or bilimlar bilan tanishtirishga katta e'tibor bermoqda. Germaniyada universitetga kirish uchun "Abiturent" imtihonini topshirish talab qilinadi. Boshqa davlatlardan kelgan talabalar uchun "Uni-Assist" tizimi orqali ariza topshirish va o'z ta'lim sertifikatlarini tasdiqlash zarur. Nemis tili yaxshi bilinishiga e'tibor qaratiladi, va ingliz tilida o'qitiladigan dasturlar uchun ingliz tilini bilish talab etiladi.

O'zbekistonda universitetga kirish uchun esa davlat test tizimi orqali ariza topshiriladi va imtihonlar o'tkaziladi. Bunday testlar ko'pincha davlat tomonidan belgilangan fanlar bo'yicha o'tkaziladi, va umumiy o'quv muvaffaqiyati hamda talabalar bilimining asosiy mezonlarini hisobga oladi.

Germaniyada universitetlar ko'pincha bepul ta'lim taqdim etadi, lekin yashash xarajatlari, kitoblar va boshqa materiallar uchun talabalar mablag' sarflashlari kerak. Shuningdek, talabalar uchun turli xil stipendiyalar va grantlar mavjud.

O'zbekistonda ham oliy ta'lim uchun davlat grantlari mavjud, lekin ko'plab universitetlarda xususiy ta'lim turlari mavjud va ular uchun to'lovlar talab qilinadi. Yashash xarajatlari o'zgaruvchan bo'lishi mumkin, lekin Germaniyaga nisbatan, O'zbekistonda yashash nisbatan arzonroq. Bundan tashqari, Yevropa ta'lim tizimi va yuridik fakultetlarga kirish jarayonini o'rganib, uni O'zbekistonda joriy qilish haqida fikr yuritish yaxshi g'oya. Bu jarayonning ijobiy tomonlarini o'zimizning tizimimizga moslashtirish, O'zbekistonning yuridik ta'lim tizimini yanada samarali va global darajada raqobatbardosh qilishga yordam beradi. Yevropadagi yuridik fakultetlarga kirish jarayonida ko'pincha talabalar uchun murakkab testlar va imtihonlar tashkil etiladi, masalan, LNAT (Law National Aptitude Test) yoki boshqa mantiqiy va huquqiy testlar. O'zbekistonda ham shunga o'xshash tizimni joriy qilish, talabalarning faqat akademik bilimlariga emas, balki ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini va huquqiy sohadagi potentsialini ham baholashga imkon beradi.

Imtihonlarning soddalashtirilishi va takomillashishi: O'zbekistonda yuridik fakultetlarga kirishda faqatgina umumiy testlardan foydalanilmoqda, lekin yevropacha tizimda imtihonlar talabalar mantiqiy fikrlash, huquqiy tushunchalar va aniq fikr bildirishi kabi ko'nikmalarni sinovdan o'tkazadi. Bunday testlar talabalar uchun kengroq imkoniyatlar yaratadi va yuridik soha uchun iqtidorli mutaxassislar tayyorlashga yordam beradi.

Muayyan ixtisoslashgan testlar: Yuridik fakultetlarga kirishda maxsus ixtisoslashgan testlar o'tkazish, masalan, huquqiy asoslar, tahlil va mantiqiy fikrlashni o'lchovchi imtihonlar talab qilinishi mumkin. Bu testlar O'zbekiston talabalarining yuridik bilimlarini chuqurroq tekshirishga imkon beradi.

Yevropa universitetlarida kirish uchun motivatsion xatlar va referanslar muhim rol o'ynaydi. Talabalar o'zlarining huquqiy soha bilan bog'liq ishtiyoqi, kelajakdagi maqsadlari va jamiyatga xizmat qilish istagini yozma ravishda ifodalaydilar. O'zbekistonda ham shu kabi tizimni joriy qilish, talabalarning faqatgina akademik bilimlari emas, balki ularning huquqiy sohadagi qiziqishlari va ishtiyoqini ham baholashga yordam beradi.

O'zbekistonda ham huquqiy fakultetlarga kirishda talabalar motivatsion xat yozishlari, o'zlarining yuridik sohadagi qiziqishlarini va bu sohada erishmoqchi bo'lgan maqsadlarini ko'rsatishlari kerak. Bu yondashuv, talabalar orasida faqat akademik bilimlarga asoslanmasdan, haqiqiy ishtiyoqni ham o'rganishga imkon yaratadi.

Yevropada yuridik ta'lim ko'pincha ingliz tilida yoki mamlakatning davlat tilida olib boriladi. O'zbekistonda ham ingliz tilidagi dasturlarni ko'paytirish, ayniqsa xalqaro huquq bo'yicha, talabalarni nafaqat mahalliy, balki global bozorga ham tayyorlaydi.

O'zbekistonda ingliz tilida yuridik dasturlarni tashkil etish, talabalarni xalqaro huquq bo'yicha ta'lim olish imkoniyatlari bilan ta'minlaydi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning global huquqiy tizimni tushunishlarini va ularni zamonaviy yuridik muammolarni hal qilishga tayyorlashga yordam beradi.

Yevropadagi yuridik fakultetlar ko'pincha ta'lim jarayonini amaliy ishlar bilan uyg'unlashtiradi. Talabalar o'qish davomida huquqiy maslahatlar berish, sud zalida ishtirok etish va amaliy tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbekistonda ham amaliy tajribaga asoslangan ta'limni kengaytirish talabalar uchun katta ahamiyatga ega.

Yuridik fakultetlarda talabalarni amaliyotga yo'naltirish, huquqiy tashkilotlar, sudlar yoki davlat idoralarida amaliyotlarni tashkil etish, talabalarni nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ish tajribasi bilan ham ta'minlaydi. Bu yondashuv, talabalar uchun o'qishdan keyin ish topishda katta yordam beradi.

Yevropada yuridik fakultetlarga kirishda ko'plab davlatlar stipendiyalar va grantlar taqdim etadi, bu esa talabalar uchun o'qishga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'zbekistonda ham shu kabi tizimni rivojlantirish talabalar uchun o'qish imkoniyatlarini oshirishi mumkin.

Yevropadagi yuridik fakultetlarning stipendiya va grantlar tizimidan foydalanish, O'zbekistonda ham talabalarga o'qish uchun qo'shimcha moliyaviy yordam olish imkoniyatini yaratadi. Bu esa moliyaviy to'siqlarni kamaytiradi va talabalarga yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatini taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, Yevropadagi yuridik fakultetlarga kirish jarayonining ayrim komponentlarini O'zbekistonda joriy etish yuridik ta'lim tizimini yaxshilashga katta hissa qo'shishi mumkin. Kirish imtihonlarini takomillashtirish, motivatsion xatlar va referanslarni baholash, amaliy tajribani oshirish, ingliz tilida ta'limni kengaytirish va stipendiya tizimini takomillashtirish orqali O'zbekiston yuridik fakultetlari yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga erishishi mumkin. Bu tizim, shuningdek, talabalar uchun global mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish imkoniyatlarini yaratadi. Hozirgi davrda Yurisprudensiya sohasining vazifalari kengayib bormoqda. Chunki kun sayin yangidan-yangi sohalar, hal qilinishi va huquqiy tartibga solinishi kerak bo'lgan dolzarb masalalar vujudga kelmoqda. Shu bilan birga, yuridik soha vakillarining davlat va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi vazifalari ham zamonaviylashib bormoqda. Mazkur omillarni inobatga olgan holda ushbu o'zgarishlarni o'rganish, yuridik soha rivojini xalqaro va milliy amaliyotdan kelib chiqib, malakali mutaxassislar bilan muhokama qilish bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Ta'kidlanganidek, bugungi kunda dunyoda yurisprudensiyasi sohasining vazifalari o'zgarib bormoqda. Kun sayin yangidan yangi sohalar, hal qilinishi va huquqiy tartibga solinishi kerak bo'lgan dolzarb masalalar vujudga kelmoqda. Shu bilan birga, yuridik soha vakillarining davlat va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi vazifalari ham zamonaviylashib bormoqda. Afsuski bugunga kelib bizning kirish imtihonlarimizda mantiqiy fikrlash, analitik fikrlashga emas, balki aniq yozma shakildagi imtihonlardan foydalanayotganimiz hozirgi o'quvchilarimizni aqliy fikrlashga emas faqat yozma shakildagi testlardan imtihon olishimiz. Imtihonlarimizda normativ huquqiy hujjatlar va darsliklardan tashqari savollar bilan ishlashimiz bizda hal ham eski uslabda qolib ketganimizdan dalolat bermaydimi? Hozirgi rivojlanayotgan davlatlarning o'quv metodikasidan o'rnak olib tizimni o'zgartirmas ekanimiz bizdagi yuristlar bilimi kuchli nutqi yoq yuristga aylanib qolaveradi! Huquq juda keng soha. Chunki qonunlar ko'p. Kimdir jinoiy qonunlarni o'rganadi, kimdir esa fuqaro huquqlarini. Kimdir korporatsiya va xususiy sektor huquqlarini himoya qilishga qiziqadi, kimdir esa oila va bola huquqlari bilan shug'ullanadi. Yana kimdir xalqaro qonunlar va kodekslarni o'qishadi. Amerikada huquqshunoslikni bitirib, vataniga ravona bo'layotganlar ham ko'p. Chunki qonun va huquqni himoya qiluvchilarga nafaqat Amerikada, balki dunyoning har burchagida talab katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz
2. **Einführung in das Recht**" (Germaniya huquqiga kirish) Wolfgang Däubler, 2014, C.F. Müller
3. "Ta'lim to'g'risida" Qonun
4. Normatov T., "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi sharhlari"
5. "Ta'lim va huquq" jurnali